

### KONSTITUTSIYA- ADOLATLI JAMIYAT SARI YO'L

Urdabayev Madiyar Abilkasimovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi universiteti ofitseri, dotsent

**Annotatsiya:** O'zbekiston Respublikasida yangi qabul qilinayotgan konstitutsiyasining moddalari adolatli fuqarolik jamiyati sari yo'l ochib, inson va uning hayoti erkinligi, sha'ni, intelektual huquqi, qadr qimmati hamda boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishini ochib berishga bag'ishlanadi.

**Kalit so'zlar:** Konstitutsiya ijtimoiy jamiyat qadir qimmat, intelektual huquq, burch, erkinlik, qonun, referendum, inson qadri, modda, milliy qadriyat, diniy erkinlik.

#### KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining g'oyasi, maqsadi, ruhi - har bir qoidasi inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, asrlar mobaynida shakllangan demokratik qadriyatlar, milliy davlatchilik, shuningdek, bir necha ming yillardan buyon avloddan avlodga meros bo'lib kelayotgan o'zbekona va sharqona davlatni idora etish hamda xalq bilan bamaslahat siyosat olib borish an'analarini o'zida to'la mujassamlashtirgan. Prezidentimizning "Hammamizni tarbiyalagan, voyaga yetkazgan - shu xalq. Barchamizga tuz-nasiba bergen ham - shu xalq. Bizga ishonch bildirgan, rahbar qilib saylagan ham aynan shu xalq. Shunday ekan, biz birinchi navbatda kim bilan muloqot qilishimiz kerak - odamlarimiz bilan. Kim bilan bamaslahat ish tutishimiz kerak - avvalo xalqimiz bilan. Shunda xalqimiz bizdan rozi bo'ladi. Xalq rozi bo'lsa, ishimizda unum va baraka bo'ladi. Xalq bizdan rozi bo'lsa, Yaratgan ham bizdan rozi bo'ladi<sup>1</sup>, degan fikrlari xalq bilan bamaslahat siyosat olib borish an'analar davom etayotganligining amaliy isbotidir. Yangi O'zbekiston Yangi Konstitutsiyasining qabul qilinishi milliy qadriyatlаримизни adolatli ijtimoiy jamiyat, inson qadir qimmati va intelektual huquqlarini himoya qiladigan va qo'llab quvvatlaydigan jamiyat qurish yo'llarini belgilab beradi.

#### MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasi huquqiy tizimimizda ijobjiy yangilanishlar, fuqarolarga ko'dan ko'p yengilliklar va ularning huquqlarini izchil himoya qiladigan shu jumladan bir necha yillardan buyon dolzarb muammolardan biri hisoblanib kelayotgan shaxsning intelektual huquqiy daxlsizligini taminlaydi(Yangilan Konstitutsyaning 31-moddasi). Bugungi yangilanayotgan O'zbekistonda bu moddaning konstitutsiga kiritilishi insonlarning yashash erkinligining kafolatlaridan biri desak adashmagan bo'lamiz. Taniqli fizik olim Albert Eynshteyn "Konstitutsyaning kuchi butunlay har bir fuqaroning uni himoya qilishga qat'iyat bilan intilishidadir. Konstitutsiyaviy huquqlar har bir fuqaro ushbu himoyaga hissa qo'shishni o'z burchi deb bilsagina himoya qilinadi<sup>2</sup>

Konstitutsiya kuchi haqida o'z fikrlarini bildirgan. Amerikalik huquqshunos, AQSh Oliy sudining uzoq yillar a'zosi bo'lgan Oliver Vendell Xolms "Konstitutsiyalar nazariyalarni qo'llab-quvvatlash uchun emas, balki amaliy va moddiy huquqparni saqlash uchun mo'ljallangan, deb ta'kidlaydi. Amerikalik huquqshunos va siyosatchi Edvard Mur Kennedy esa "Konstitutsiya nafaqat biz bilan hamohang bo'lgan qarashlarni himoya qiladi, u

shuningdek, biz norozi bo'lgan qarashlarni ham himoya qiladi, deya qiziqarli fikrlarini aytib o'tgan. Akademik, yuridik fanlar doktori, professor A. Saidov "Konstitutsiya muhim siyosiy-huquqiy hujjatida kishilik sivilizatsiyasining yutug'i, umuminsoniy qadriyat va demokratik taraqqiyotning yuridik asosidir", "Konstitutsiya bu dogma emas, u harakat uchun dastur bo'lishi kerak", "Konstitutsiya huquqiy bilimlarning alifbosidir", degan chuqur huquqiy-falsafiy fikrlarni bayon etgan holda, mamlakatimiz Konstitutsiyasini o'rganish va bilish, unga rioya qilish va Asosiy qonunimiz bilan faxrlanishni albatta zarur, deb hisoblaydi. Yangilangan Konstitutsiyaning muqaddimasida O'zbekistonning yagona xalqi:inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e'lon qilib, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiyadolat va birdamlik g'oyalariga sadoqatimizni namoyon qilib, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq vaadolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatimizni anglagan holda, davlatchiligmiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajodolarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosiga tayanib, mamlakatimizning bebahoh tabiiy boyliklarini ko'paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda, O'zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlarini hamkorlik, o'zaro qo'llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilib, fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko'p millatli jonajon O'zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta'minlashni maqsad qilgan holda har bir moddaning qabul qilinishida aholi vakillar mas'ulyat bilan ishtirok etishlari kerak ekanligini tushuntirish ishlarni yanada jadallashtirish kerak ekanligini aytib o'tmoqchimiz. Xalqimizda "Kengashli to'y tarqamas" degan g'oyat ibratli bir maqol bor. Ijtimoiy hayotimizning qaysi bir jihatiga e'tibor qaratmaylik, mana shu hikmatga amal qilinishini kuzatishimiz mumkin. Qaysi bir joyda ibratli bir ish bo'lsa, u kengashilgan tadbirning natijasi ekaniga guvoh bo'lamiz. Bu bejiz emas, zotan biz ulug'vor o'tmishimizdan shunday saboq olganmiz. Sohibqiron Temur o'z tuzuklarida shunday ta'lim beradi: "Davlat ishlarining to'qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilur... Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to'g'ri tadbir bilan amalgal oshirish mumkin... Har kimdan so'z olib kengash so'rар edim. Lekin aytilgan har bir maslahatning yaxshi va yomon tomonlari haqida o'ylab ko'rgach, to'g'ri va savoblirog'ini tanlab olardim". Bu haqda mashhur nemis tarixchisi F. Shlosser ham shunday ma'lumot beradi: "... sarkarda, hokim va qonunchi sifatida buyuk talant egasi edi. Yolg'oni yomon ko'rар, bilimga muhabbat qo'yishdan mahrum emas edi. Uning manzilida shoirlar, olimlar, mashshoqlar va mistiklar (so'filar) ko'p bo'lardi... u odil sudy, ilm-fan do'sti, birga suhbatlashishni xush ko'radigan, rassomlar va olimlarning homiysi edi". Bu fikr to'g'ridan-to'g'ri xalqning xohish-irodasini qonunlarda ifoda etish, bayoni uning tomonidan saylangan vakillar orqali bajarilishi lozimligini bildiradi. Shuning uchun ham "Davlatning yagona manbai xalq" degan qoida barcha zamonlarda o'z dolzarbligini saqlab kelgan. Jan Jak Russo: "Qonunga itoat etguvchi xalq uning ijodkori ham bo'lmog'i lozim" deydi. O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir", 3 deb ta'kidlagan edi. Darhaqiqat, suveren Respublikamiz Konstitutsiyasi - inson va fuqaro huquqlarining demokratik xartiyasi bo'lib, u huquqiy va insonparvar davlatni shakllantirishning strategik dasturi vazifasini o'tab kelmoqda. Konstitutsiya - davlatimiz mustaqilligining huquqiy zamini, xalq xohish- irodasining oliv ifodasi sifatida maydonga chiqdi. U eng taraqqiy topgan, rivojlangan davlatlarning konstitutsiyaviy tajribalariga tayanish bilan birga, tarixda sinalgan umumbashariy, umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan huquqiy hujjat. Bugun yurtimiz haqida fikr yuritilganda "Yangi O'zbekiston", Taraqqiyotning yangi bosqichiga kirib borayotgan mamlakat kabi sharafbaxsh iboralar ishlataliyapti. Bu qo'lga kiritayotgan ulkan muvaffaqiyatlarimizning amaliy samarasi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Demak, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari dadil harakatdamiz. Yuksalish esa raqamli iqtisodiyotga o'tish, ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, avtomatlashtirish, innovatsion g'oyalar va texnologiyalar bilan boyitish, shu bilan birga o'zligimizni, ma'naviyatimizni, milliy qadriyatlarmizni rivojlanirishni taqozo etadi. Shunday ekan, har bir yurtdoshimiz bugun mamlakatimizda barq urib turgan beba ho ne'mat - tinchlik, totuvlik, barqarorlikning qadriga yetib, Uchinchi Renessans davri poydevoriga g'isht qo'yish, ya'ni yurtimiz taraqqiyotiga munosib xissa qo'shish uchun astoydil harakat qilmog'i lozim.

### XULOSA

Xulosa o'mida shuni aytal olamizki, bugungi, har tamonlama rivojlanib bora-yotgan dunyoda, yetakchi va ilg'or mamlakatlar qatoridan o'z o'rniga ega bo'lish uchun zamon ruhi bilan hamnafas bo'lgan, har jabbada mukammal, ijtimoiy davlat qurishga asoslangan, oddiy xalq vakillarining muammolarini yechishga qodir bo'la oladigan qonun tizimi bo'lmog'i zarur. Xuddi mana shunday yuqorida ta'kidlaganlarimizni umumlashirgan holda, bugungi zamon ruhiga mos bo'lgan O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining yangilangan tahriri o'zbek xalqi tomonidan referendumda tasdiqlandi. Yangilangan konstitutsiyamizda xalqimiz uchun bir qancha yengilliklar yaratildi. Inson qadr-qimmati yuqori o'ringa ko'tarildi. Shuningdek asrlar mobaynida sharafli kasb hisoblanib kelgan - o'qituvchilarining huquqlari yangilangan qomusimizda belgilab qo'yildi. Yillar mobaynida majburiy mexnatga jalb qilingan, o'z kasbi bo'lmish barkamol avlodni yetishtirish qolib dalada paxta tergan o'qituvchilarining qadr-qimmati adolatli tarzda o'z o'rniga qo'yildi.

Shu jumladan yangilangan qomusimizda inson ilmiy salohiyatlari, o'z aqliy mehnat mahsulini himoyalay olish huquqiga ham ega bo'ldi. Qisqa qilib shuni aytal olamiz-ki, yangilangan konstitutsiyamiz muhtaram prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev aytganlaridek "Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan tamoyilga asoslangan ijtimoiy davlat qurishning asosiy kalit bo'lib xizmat qiladi desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

### FOYDANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2016-yilning 14-dekabrida Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisi

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent: O‘zbekiston, 2023. - 80.
- b.
3. Konstitusiya – xalqimiz tafakkuri va ijodining mahsuli ilmiy maqola.
4. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2016-yilning 14-dekabrida Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisi
5. <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/news/m9106>
6. <https://saylov.uz/oz/news/2020/11/30/konstitutsiya-khalqimiz-tafakkuri-va-izhodining-mahsuli-2>